


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021- yil yanvar-avgust oyi uchun dastlabki ma`lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-avgust oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 700,6 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 126,9 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-avgust, mln.AQSh dollari)**

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 312,7 mln.AQSh dollariga (19,1 % ga ko'paydi) va import hajmi 387,9 mln.AQSh dollariga (24,6 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 75,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-avgust, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	195,7	132,9	62,8	27,9
Xitoy Xalq Respublikasida	181,5	47,3	134,1	25,9
Qozog`iston	77,0	32,4	44,7	11,0
Turkiya	65,8	21,2	44,7	9,4
Qirg'iz Respublikasi	43,7	39,2	4,5	6,2
Hindiston	12,2	0,7	11,6	1,7
Belarus	10,8	1,6	9,3	1,5
Ukraina	10,6	6,2	4,4	1,5
Germaniya	9,9	1,5	8,4	1,4
Polsha	9,7	5,3	4,4	1,4

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 74 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (27,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (25,9 %), Qozog`istonda (11,0 %), Turkiyada (9,4 %), Qirg'iz Respublikasida (6,2 %), Hindiston (1,7 %) va Ukraina (1,5 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (195,7 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (181,5 mln.AQSh.dollari), Qozog'iston (77,0 mln.AQSh.dollari), Turkiya (65,8 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (43,7 mln.AQSh.dollari) va Hindiston (12,2 mln.AQSh.dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-avgust, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Rossiya Federatsiyasi	131680,6	145125,0	195671,1
Eksport	83024,0	87810,4	132891,3
Import	48656,5	57314,6	62779,8
Saldo	34367,5	30495,7	70111,5
Xitoy Xalq Respublikasi	169348,2	128632,4	181467,2
Eksport	28173,4	21474,8	47348,2
Import	141174,8	107157,7	134119,0
Saldo	-113001,4	-85682,9	-86770,8



Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Qozog`iston	56510,9	71004,3	77041,6
Eksport	25213,3	36031,3	32391,1
Import	31297,5	34973,0	44650,5
Saldo	-6084,2	1058,4	-12259,4
Turkiya	94692,8	33200,5	65826,0
Eksport	13212,7	9641,8	21164,3
Import	81480,1	23558,7	44661,7
Saldo	-68267,4	-13916,9	-23497,4
Qirg`iziston Respublikasi	60342,0	77781,2	43651,7
Eksport	57609,7	73511,4	39174,3
Import	2732,3	4269,8	4477,4
Saldo	54877,4	69241,6	34696,9
Hindiston	8660,4	6804,1	12214,8
Eksport	913,7	226,8	655,8
Import	7746,7	6577,3	11559,0
Saldo	-6833,0	-6350,5	-10903,2
Belarus	3171,1	2031,1	10815,5
Eksport	1079,9	1560,8	1559,9
Import	2091,2	470,3	9255,6
Saldo	-1011,2	1090,5	-7965,7
Ukraina	10318,2	7377,2	10607,8
Eksport	4992,4	5598,5	6198,3
Import	5325,8	1778,7	4409,5
Saldo	-333,4	3819,8	1788,9
Germaniya	17141,1	12823,8	9853,0
Eksport	3859,1	2757,9	1498,2
Import	13282,0	10066,0	8354,8
Saldo	-9422,9	-7308,1	-6856,7

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Polsha	6555,2	5668,5	9659,5
Eksport	2170,7	4294,4	5288,8
Import	4384,6	1374,0	4370,7
Saldo	-2213,9	2920,4	918,1
Turkmaniston	2914,4	3850,3	7317,6
Eksport	757,1	2157,0	2046,5
Import	2157,3	1693,3	5271,1
Saldo	-1400,2	463,8	-3224,5
Koreya Respublikasi	15634,6	12078,9	6996,5
Eksport	258,2	198,1	146,1
Import	15376,4	11880,8	6850,4
Saldo	-15118,3	-11682,7	-6704,3
Tayvan	1377,0	925,0	6049,7
Eksport	214,5	0	42,7
Import	1162,5	925,0	6007,0
Saldo	-948,0	-925,0	-5964,3
Italiya	4147,7	3567,5	5647,1
Eksport	425,6	1160,7	754,1
Import	3722,1	2406,7	4893,1
Saldo	-3296,6	-1246,0	-4139,0
Fransiya	630,5	3463,9	5037,4
Eksport	105,4	0	0
Import	525,0	3463,9	5037,4
Saldo	-419,6	-3463,9	-5037,4
Eron Islom Respublikasi	4188,3	1696,2	4639,6
Eksport	580,8	529,9	1121,4
Import	3607,5	1166,3	3518,3
Saldo	-3026,8	-636,4	-2396,9

Davlatlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Malayziya	5389,8	6209,0	4625,7
Eksport	0	0	0
Import	5389,8	6209,0	4625,7
Saldo	-5389,8	-6209,0	4625,7
Tojikiston	1015,7	4434,4	4585,8
Eksport	519,0	3543,5	3479,6
Import	496,8	891,0	1106,2
Saldo	22,2	2652,5	2373,5
Avg'oniston	286,5	2094,3	3001,0
Eksport	286,5	2094,3	3001,0
Import	0	0	0
Saldo	286,5	2094,3	3001,0
Litva	7829,8	1582,5	2829,0
Eksport	198,1	67,7	419,4
Import	7631,7	1514,9	2409,6
Saldo	-7433,6	-1447,2	-1990,3

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-avgust oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 12,3 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-avgust, % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yil yanvar-avgust oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (4,4 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,8 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-avgust)

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning eksportyorlar soni 415 tani tashkil etib, ular tomonidan 312,7 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,1 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (73,4 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (18,2 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalari (2,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- avgust, ulushi, % da)





- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- avgust)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	312,7	219,4	93,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	57,0	48,0	9,0	18,2	21,9	9,6
Qora metalar	2,5	2,2	0,3	0,8	1,0	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,0	3,6	0,4	1,3	1,6	0,4
Sanoat tovarlari	229,6	151,0	78,6	73,4	68,8	84,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	7,1	6,0	1,1	2,3	2,7	1,2
Xizmatlar	9,0	6,6	2,4	2,9	3,0	2,6
Boshqalar	3,5	2,0	1,5	1,1	1,0	1,6

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-avgust, % va ulushi,)




2021- yilning yanvar-avgust oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 42,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,1 %), Qirg'iz Respublikasi (12,5 %), Qozog'iston (10,4 %), Turkiya (6,8 %), Ukraina (2,0 %) va Polsha (1,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 91,0 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yining mos davriga nisbatan 41 davlatdan 47 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-avgust,% da)**



- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Qirg'iz Respublikasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Ukraina*

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-avgust)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Rossiya Federatsiyasi	87810,4	132891,3	105,7	151,3	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	21474,8	47348,2	76,2	2,2 m	4	2
Qirg'iz Respublikasi	73511,4	39174,3	127,6	53,3	2	3
Qozog`iston	36031,3	32391,1	142,9	89,9	3	4
Turkiya	9641,8	21164,3	72,9	2,1 m	5	5
Ukraina	5598,5	6198,3	112,1	110,7	6	6
Polsha	4294,4	5288,8	197,8	123,2	7	7
Tojikiston	3543,5	3479,6	6,8 m	98,2	8	8
Afg`oniston	2094,3	3001,0	7,3 m	143,3	12	9
Portugaliya	805,1	2282,6	79,7	2,8 m	17	10
Misr	0,0	2098,5	-	100,0	-	11
Turkmaniston	2157,0	2046,5	2,8 m	94,9	11	12
Belarus	1560,8	1559,9	144,5	99,9	13	13
Germaniya	2757,9	1498,2	71,4	54,3	9	14
Moldovo Respublikasi	817,9	1278,2	89,3	156,3	16	15
Eron	529,9	1121,4	91,2	2,1 m	20	16
Guruziya	488,1	945,1	2,2 m	193,6	21	17
Italiya	1160,7	754,1	2,7 m	65,0	15	18
Belgiya	23,2	716,1	79,7	30,8 m	35	19
Pokiston	2533,3	688,5	21,4 m	27,2	10	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 9007.0 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,9 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 229.6 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 73,4 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 49,4 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021-yil yanvar-avgust)

2021- yil yanvar-avgust oyida import hajmi 387,9 mln.AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 124,6 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (36,9 %), boshqalar (20,1 %) hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021-yilning yanvar-avgust oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,6 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 387,9 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,7 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-avgust)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	387,9	132,0	255,9	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	64,1	40,5	23,6	16,5	30,7	9,2
Qora metalar	36,8	22,4	14,4	9,5	17,0	5,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	66,2	9,8	56,4	17,0	7,4	22,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	143,0	14,6	128,4	36,9	11,0	50,3
Boshqalar	77,8	44,7	33,1	20,1	33,9	12,9


Importning eng katta ulushi, jumladan, Qora metalar (17,0 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (30,7 %) hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (50,3 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (22,0 %) va hissasiga to'g'ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021-yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 36.9 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 16,5 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 17.0 % ga oshdi, ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI**

(yanvar-avgust, % va ulushi)





Hisobot davri yakunlariga koʻra, import boʻyicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 34,6 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,2 % ortda qoldirgan holda, birinchi oʻrinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-avgust)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		Oʻsish surʼati, % da		Oʻrni	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	107157,7	134119,0	75,9	125,2	1	1
Rossiya Federatsiyasi	57314,6	62779,8	117,8	109,5	2	2
Turkiya	23558,7	44661,7	28,9	189,6	4	3
Qozogʻiston	34973,0	44650,5	111,7	127,7	3	4
Hindiston	6577,3	11559,0	84,9	175,7	9	5
Belarus Respublikasi	470,3	9255,6	22,5	19,6 m	33	6
Germaniya	10066,0	8354,8	75,8	83,0	7	7
Koreya Respublikasi	11880,8	6850,4	77,3	57,7	6	8
Tayvan	925,0	6007,0	79,6	6,4 m	22	9
Turkmaniston	1693,3	5271,1	78,5	3,1 m	17	10
Fransiya	3463,9	5037,4	6,5 m	145,4	12	11
Italiya	2406,7	4893,1	64,7	2,0 m	14	12
Malayziya	6209,0	4625,7	115,2	74,5	10	13
Qirgʻiz Respublikasi	4269,8	4477,4	156,3	104,9	11	14

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'ri	
	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
Ukraina	1778,7	4409,5	33,4	2,4 m	15	15
Polsha	1374,0	4370,7	31,3	3,1 m	20	16
Eron	1166,3	3518,3	32,3	3,0 m	21	17
Argentina	483,5	2795,1	20,0	5,7 m	32	18
Litva	1514,9	2409,6	19,8	159,1	19	19
Latviya	872,9	1865,1	8,5	2,1 m	26	20

2021- yil yanvar-avgust oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 62 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-avgust % da)**





Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston va Germaniya) jami importning 79,0 % ini tashkil qiladi, bu 306124,8 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel.:(69)-211-72-00**